



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 596 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 Allamurodov Elyor Tursun ugli	218
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 Dilrabo Jumanova	223
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar 227 Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	227
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar 232 Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	232
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 Saotmurotova Zebo Yuldash qizi	235
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	239
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	244
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar 247 Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi	247
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna	250
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari 255 Berdiyeva Dilnoza A'zamovna	255
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv 258 Charos Axmadova	258
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish 262 Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich	262
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi 267 Djalalov Baxromjan Begmurzayevich	267
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar 272 Erimmetova Nafisa Bahromovna	272
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari 279 Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi	279
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari..... 283 Karimov Jaxongir Abdunabiyevich	283
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 Madaminova Shaxodat Shomurotovna	287
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 Mahmudova Maftuna Aktam qizi	293
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study 297 Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li	297
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza	301
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 Muxitdin Nazarov	305
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi	310
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 Qurbonova Gulmira Alisher qizi	314



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
Turabova Lobar Xusen qizi	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
Usmonova Xusnora Ergashovna	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish.....	344
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
Axmedov Gayratjon Kosimovich	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
Бабаджанова Гулчехра	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
Ergashova Dilafro'z	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
Hayitova Sarvinov Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project).....	368
Khurshida Kuchkarova	
O'spirinlarda kiberbullingning profilaktikasi va psixokorreksion imkoniyatlari.....	373
Ibodova Gulimehr Inoyat qizi	
Pedagogical Factors and Didactic Conditions for Developing Communicative Competence in Future Teachers.....	378
Mirzayeva Gulshan Azamatovna	
Musiq ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	382
Altmisheva Maftunabonu Baxtiyor qizi	
The Importance of the Concept of Discursive Competence in Teaching English.....	386
Mukhamatjonova Diyora Rustam qizi	
Koxlear implantli bolalarni ta'lim jarayoniga moslashtirishning korreksion-pedagogik asoslari.....	390
Najimova Muhabbat	
Alfa avlod uchun internet xavflari klassifikatsiyasi metodlarini ishlab chiqish klassifikatori	393
Ahralov Shavkat Sulaymonovich, Ahrorova Sevara Sulaymon qizi	
Aqli zaif o'quvchilar ta'limida sensor integratsiyaning pedagogik imkoniyatlari.....	398
Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna	
Koxlear implantatsiyali o'quvchilarning psixologik-pedagogik rehabilitatsiyasi samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.....	401
Yuldasheva Saodat Utkurovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlashning ustuvor tamoyillari.....	406
Akbarova Feruza Uktamjonovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Biologiya ta'lim bosqichida noan'anaviy integratsiyalashgan darslar jarayonida CLIL texnologiyasini joriy etish 410 <i>Azimov Ibragimjon Toshpulatovich, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi</i></p> <p>Onlayn ta'lim muhitida didaktik kompetensiyani takomillashtirish yo'llari 416 <i>Kushimova Mahbuba Janibekovna</i></p> <p>Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantga ega bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari 420 <i>Mirzayeva Umidaxon Inamovna</i></p> <p>Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda pedagogik shart-sharoitlar va tamoyillar tizimi 423 <i>Omanqulova Shohida Nematillo qizi</i></p> <p>Talabalarda axborot-psixologik tahdidlarni oldini olishning psixologik imkoniyatlari 426 <i>Ramazonov Jahongir Djalolovich</i></p> <p>Changes in the Structure and Strength of the Aluminum Alloys SAV-1 Irradiated With Fast Neutrons 431 <i>S. A. Baytelesov, F. R. Kungurov, G. N. Turdieva, I. V. Papushki, A.V. Galushko</i></p> <p>Bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashga diagnostik model asosida yondashuv 438 <i>Suvankulova Malika Baxtiyor qizi</i></p> <p>"Integratsion mexanizm" – integratsiyani tadqiq etishdagi muhim yo'nalish sifatida 444 <i>Xayitov Lazizbek Rustamjon o'g'li</i></p> <p>Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talaba qizlarining somatotipik va funksional xususiyatlariga ko'ra taqalashirilgan individual fitnes mashg'ulotlari uslubiyati 447 <i>Ziyatov Muhammad Namazovich</i></p> <p>Проблемы формирования координационных способностей у дошкольников с нарушением слуха и рекомендации по их развитию 451 <i>Закирова Сарвиноз Баратовна, Кобулова Шахризода Равшан кизи</i></p> <p>Uy ta'limi sharoitida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari 455 <i>Sodiqova Nurgul Tursunboyevna</i></p> <p>Paradzyudoni rivojlantirishning dolzarb muammolari va ularni takomillashtirish yo'llari 459 <i>Berdiyev Sherzod Ochilovich</i></p> <p>Pedagogik antropologiya Ushinskiy talqinida 462 <i>Ochilova M. P.</i></p> <p>Using Concept Checking Questions to Improve Vocabulary Retention in English Language Classrooms: Evidence from Uzbekistan 468 <i>Ramazonov Jasurbek Safar O'g'li</i></p> <p>Oliy ta'limda tasviriy san'at: an'anaviylik va zamonaviy tendensiyalar uyg'unligi 472 <i>Bozorov Farxod Toyir o'g'li</i></p> <p>Oliy ta'lim tizimida ona tili o'qitishning kognitiv-kontseptual asoslari va lingvodidaktik tizimini takomillashtirish 475 <i>Djo'rayeva Shaxnoza Shakirjanovna</i></p> <p>O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish 478 <i>Salohiddinova Lobar Qahramon qizi</i></p> <p>Deontologik yondashuv asosida maktab direktorlarining boshqaruv madaniyatini takomillashtirish 482 <i>Abdulxayeva Maxiraxon Boriyonovna</i></p> <p>Sportchilarda gipoksik mashg'ulotlar davomida qon aylanish tizimining funksional imkoniyatlarini rivojlantirish 485 <i>Adilbekov T. T.</i></p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik va tejamkorlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi 488 <i>Alisherova Raxnamo Odiljon qizi</i></p> <p>Pedagogikada enigmatik matn tushunchasi: nazariy talqin, tasnif va didaktik funksiyalar 493 <i>Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi</i></p> <p>Futbol akademiyalarida yosh iste'dodlarni kashf etishda murabbiyning pedagogik mahorati va bolalar psixologiyasi 498 <i>Shukurova Sayyora Sa'dullayevna, Kadirov Abdurashid</i></p> <p>Ikkinchi tartibli egri chiziqlar va ularni hayotiy masalalarga tatbiq etish orqali o'qitish metodikasi 502 <i>To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova</i></p>
-------------------------------	--



Sport jamoalarida norasmiy liderlikning shakllanish omillari va psixologik asoslari (raqamli muhit kontekstida)	507
<i>Usmonov Alisher G'offorali o'g'li</i>	
Methodological Features of Constructing the Basketball Training Process in Physical Education Clubs of General Education Schools.....	511
<i>Baymurotov Ismakhmud Alievich</i>	
Kollaborativ o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	514
<i>Bobonova Zulfiya Alimqul qizi</i>	
How Anxiety Affects Speaking Performance in IELTS Preparation Classes.....	517
<i>Fariza Ergasheva O'lmas kizi</i>	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish tendensiyalari	523
<i>G'ofurov Jamoliddin, Ma'rifjonova Mubina</i>	
Til darslarida komparativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik modellari	527
<i>Mohinbonu Usmonova Uchqun qizi</i>	
Taekvondochilarda ideomotor tayyorgarlikni rivojlantirishda vizual signal va zarba datchikli qurilmaning diagnostik imkoniyatlari.....	532
<i>Po'latov Xumoyun Tursunali o'g'li</i>	
Teacher Professional Competence Development in ELT: Theoretical And Practical Perspectives	537
<i>Qilichova Zarifa Xayrullo Qizi</i>	
Современные подходы к формированию коммуникативных умений у учащихся с нарушениями функций опорно-двигательного аппарата	540
<i>Закирова Сарвиноз Баратовна, Зайнутдинова Зулхумор</i>	
Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish (maktabgacha ta'lim jarayoni misolida)	544
<i>Eldor Raxmatov Rayxonovich, Nodira Ochilova Yo'ldoshevna</i>	
Nutq rivojlanishi modulini o'qitishda bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	547
<i>Xamroyeva Zumradxon Arabboy qizi</i>	
Методология совершенствования теории и практики предмета "Родной язык и читательская грамотность" в системе высшего образования	551
<i>Шоира Баймурадовна Бабаева</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda smart tahlilning o'rni.....	556
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi</i>	
Buxoro amirligida yangi usul maktablari faoliyati: yutiqqlari va muammolar.....	559
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich</i>	
Tarbiya darslarida mifologik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	565
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Dilmurotova Nazokat Sobirjonovna</i>	
Yunon-rim kurashchilarining vazn toifalarini hisobga olgan holda aylanma mashqlar asosida kuch sifatlarini rivojlantirish.....	570
<i>Abdikulov J. N.</i>	
The Art of Translating Wordplay: Ibrohim Gafurov's Strategies in Rendering James Joyce's Ulysses into Uzbek	574
<i>Abdurafova Gulbahor O'tkirbek qizi, A. T. Amanov</i>	
Xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning didaktik tamoyillari	578
<i>Aliyeva Mashhura Tog'aymurodovna</i>	
"Go'zallik" konseptining paremlar orqali shakllantirilgan nominativ maydoni tahlili	583
<i>Babanazarova Sohiba Abdusharipovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekopedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari.....	587
<i>Raximova Nuquljon Yusupovna</i>	
Dual ta'limning afzalliklari va rivojlanish istiqbollari	590
<i>Sh. A. Ismatova</i>	
Effective Methods of Mastering Connotative Educational Materials.....	593
<i>Khoshimova Dilnoza Rixsiboyevna</i>	



“GO‘ZALLIK” KONSEPTINING PAREMALAR ORQALI SHAKLLANTIRILGAN NOMINATIV MAYDONI TAHLILI

Babanazarova Sohiba Abdusharipovna
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi “go'zallik” konseptining paremiologik materiallar asosida shakllangan nominativ maydoni tadqiq etiladi. Tadqiqotda o'zbek tilining turg'un o'xshatishlari, iboralari va maqollarida aks etgan go'zallik haqidagi tasavvurlar kognitiv va aksiologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida “go'zallik” konseptini ifodalovchi 51 ta paremiologik birlik tanlab olinib, ularning semantik xususiyatlari hamda konsept tarkibidagi o'rmi aniqlanadi. Natijada “go'zallik” konseptining nominativ maydoni yadro, yaqin periferiya va uzoq periferiya qatlamlariga ajratildi. Tahlil natijasida “go'zallik” konsepti o'zbek xalqining konseptual olamida, avvalo, mukammallik, ma'naviy komillik va nafislik, latofat bilan bog'liq axloqiy-estetik qadriyat sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatildi. Shuningdek, konsept tarkibida jozibadorlik, nazokat, pragmatik manfaat va ijtimoiy baholash bilan bog'liq semantik qatlamlar ham mavjudligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: “go'zallik” konsepti, nominativ maydon, paremiologik birliklar, maqollar, turg'un o'xshatishlar, iboralar, kognitiv tilshunoslik, aksiologiya, yadro va periferiya.

Abstract: This article investigates the nominative field of the concept “Beauty” as represented in Uzbek paremiological units. The study analyzes cognitive and axiological perceptions of beauty reflected in Uzbek proverbs, phraseological units, and fixed similes. The research corpus consists of 51 paremiological units representing the concept of beauty. As a result, the nominative field of the concept was structured into core, near-peripheral, and far-peripheral zones. The findings reveal that, in the conceptual worldview of the Uzbek people, beauty is primarily associated with perfection, spiritual maturity, and gracefulness as moral and aesthetic values. In addition, semantic components related to attractiveness, elegance, pragmatic benefit, and social evaluation were identified within the structure of the concept.

Key words: concept of “beauty”, nominative field, paremiological units, proverbs, fixed similes, phraseological units, cognitive linguistics, axiology, core and periphery.

Аннотация: В данной статье исследуется номинативное поле концепта “Красота”, сформированное на материале паремиологических единиц узбекского языка. В работе с когнитивной и аксиологической точек зрения анализируются представления о красоте, отражённые в устойчивых сравнениях, фразеологических единицах и пословицах узбекского языка. Материал исследования составили 51 паремиологическая единица, репрезентирующая концепт красоты. В результате анализа были выделены ядерная, ближняя и дальняя периферийные зоны номинативного поля концепта. Установлено, что в концептуальном сознании узбекского народа концепт “Красота” прежде всего связан с совершенством, духовной зрелостью и изяществом как нравственно-эстетическими ценностями. Кроме того, в структуре концепта выявлены семантические компоненты, связанные с привлекательностью, утончённостью, прагматической пользой и социальной оценкой.

Ключевые слова: концепт “Красота”, номинативное поле, паремиологические единицы, пословицы, устойчивые сравнения, фразеологизмы, когнитивная лингвистика, аксиология, ядро и периферия.

KIRISH

Konseptning nominativ maydonini aniqlash uning mazmun-mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ayrim konseptlar keng va oson aniqlanadigan nominativ maydonga ega bo'ladi. Masalan, mehmondo'stlik, mehribonlik, mehnatkashlik, ahillik va mardlik kabilar. Chunki ularning sinonimlari, antonimlari mavjud bo'lib, nutqda faol qo'llanadi. Boshqa ayrim konseptlar esa cheklangan nominativ maydonga ega. Bular keng omma uchun unchalik dolzarb bo'lmagan, tor soha yoki maxsus bilim doirasiga oid tushunchalardir. Masalan, tandir, qamchi, egov, charx kabi birliklar shular jumlasidandir. Uchinchi tur konseptlar esa tizimli aniqlanadigan nominativ maydonga ega bo'lmay, asosan, subyektiv va okkazonal nomlar orqali ifodalanadi.

Go'zallik konsepti esa o'zbek xalqining lisoniy ongida keng nominativ maydonga ega bo'lgan konseptlardan biri hisoblanadi. Mazkur konsept tilning turli sathlarida – leksik birliklar, turg'un o'xshatishlar, iboralar, maqol va matallar, folklor hamda badiiy matnlar orqali faol ifodalanadi. Bu holat go'zallikning xalq tafakkurida muhim qadriyat sifatida shakllanganidan dalolat beradi. O'zbek xalqining dunyoqarashida go'zallik nafaqat estetik baholash mezonini, balki axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy mazmuni o'zida mujassamlashtirgan murakkab konseptual tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'z konsept maqomini olishi uchun u umumxalq iste'molidagi birlikka, ya'ni milliy ahamiyatga ega bo'lishi, frazeologik birliklar, maqol va matallar tarkibida faol qo'llanishi hamda yuqori nominativ zichlikka ega bo'lishi lozim. Shubhasiz, go'zallik ana shunday konseptlardan biri hisoblanadi ^[1, 28].

Hozirgacha ko'plab tilshunoslar uchun tadqiqot mavzusi bo'lgan "go'zallik" konsepti rus tilshunosligida M. A. Averina tomonidan "Til manzarasining tarkibiy qismi sifatida "Go'zallik" konseptining "go'zal" leksemasida verbalizatsiyasi" nomli maqolasida o'rganilgan bo'lib, unda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi masalasi ko'rib chiqiladi. Muallif lug'aviy definitsiyalar hamda rus badiiy adabiyoti namunalarini asosida "go'zallik" konseptining rus milliy dunyo manzarasi doirasida qanday mazmuniy talqin qilinishini tahlil qiladi ^[2].

A. V. Anashkina esa Boris Grebenshchikov poetik diskursida go'zallik konseptining leksik reprezentatsiya vositalarini tadqiq etar ekan, konseptning eksplitsit ifodalanish vositalariga oid miqdoriy tahlil natijalarini keltiradi va uning badiiy matnda namoyon bo'lish xususiyatlarini tavsiflaydi ^[3].

N. V. Aniskina o'zining "Zamonaviy reklamada go'zallik konseptining leksik eksplikatsiyasi" nomli maqolasida tijorat reklamasi matnlarida "go'zallik" konseptining ifodalanishiga xizmat qiluvchi leksik vositalarni tahlil qiladi. Muallif konseptning an'anaviy mazmunini reklama matnlarida aks etgan tasavvurlar bilan qiyoslab, reklama orqali shakllantirilayotgan dunyo manzarasining o'ziga xos jihatlarni aniqlaydi. Tadqiqotda "go'zal" va "go'zallik" so'zlarining leksik birikuvchanligi tahlil qilingan, inson va predmet go'zalligi bilan bog'liq stereotiplarning o'zgarishi o'rganilgan.

Shuningdek, go'zallik konseptining sog'liq, foyda va muvaffaqiyat kabi boshqa konseptlar bilan o'zaro aloqasi ham yoritilgan ^[4]. O'zbek tilshunosligida ushbu konsept Z. N. Ma'rufovaning "Mumtoz badiiy matnlarda "go'zallik" konseptining verballashuvi" dissertatsiyasida o'rganilgan bo'lib, unda mazkur konseptni verballashtiruvchi vositalar keng bayon qilingan. Tilshunosligimizda mazkur konseptning verballashuv vositalari tadqiq etilgan bo'lsa-da, uning paremiologik birliklar asosida shakllangan nominativ maydoni alohida tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganilmagan.

Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda go'zallik konsepti o'zbek xalq maqollari, turg'un o'xshatishlari va iboralar asosida tahlil qilinib, konseptning yadro va periferik qatlamlarini tashkil etuvchi nominativ birliklar aniqlanadi. Shuningdek, go'zallik haqidagi xalqona tasavvurlarning aksiologik, axloqiy, estetik va pragmatik jihatlari konseptning nominativ maydoni orqali yoritiladi. Shu bois, mazkur tadqiqot go'zallik konseptining o'zbek xalqining qadriyatlar tizimidagi o'rnini paremiologik materiallar asosida ochib berishi bilan avvalgi ishlardan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy asosini kognitiv tilshunoslik, konseptologiya hamda nominativ maydon nazariyasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqotda konseptni lisoniy ongda aks etuvchi mental birlik sifatida talqin etuvchi Z. D. Popova, I. A. Sternin, V. I. Karasik, D. Xudoyberganova, Sh. Safarov va boshqa olimlarning ilmiy qarashlariga tayanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini "O'zbek tilining izohli lug'ati" ^[5], "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" ^[6], "O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati" ^[7], "Hikmatnoma" ^[8] hamda o'zbek xalq maqollari va iboralarini tashkil etdi. Ushbu manbalardan go'zallik konseptini ifodalovchi paremiologik birliklar, turg'un o'xshatishlar va frazeologik vositalar tanlab olindi. Tahlil jarayonida tavsifiy, semantik-kognitiv, konseptual va tasniflash metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Go'zallik konseptining nominativ maydonini tashkil etuvchi birliklar tarkibiga gul, oy, bahor, sarv, nihol, jannat, farishta kabi etalon obrazlar asosida yuzaga kelgan turg'un o'xshatishlar kiradi. "Gulday", "oyday", "bahorday", "sarvday", "jannatday", "farishtaday" kabi birliklar xalqning go'zallik haqidagi ideal tasavvurlarini aks ettiradi. Ushbu obrazlarda go'zallik nafislik, poklik, latofat, mukammallik va ma'naviy komillik bilan bog'liq holda talqin qilinadi.



Shuningdek, konseptning paremiologik ifodasi ham alohida ahamiyatga ega. Xalq maqollarida go'zallik konsepti ko'pincha axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xususan, "Husn xulqi bilan chiroylik", "Yaxshi xulq - kishining ko'rki", "Go'zallik yuzda emas, aqlida", "Gap husnda emas, yusunda" kabi maqollar tashqi go'zallikdan ko'ra ichki komillik va ma'naviy fazilatlarining ustuvorligini ta'kidlaydi. Bu esa o'zbek xalqining konseptual olamida go'zallikning axloqiy-estetik kategoriya sifatida shakllanganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, xalq maqollarida go'zallikning ijtimoiy va pragmatik jihatlari ham o'z ifodasini topgan. "Yon yerni shamol qoqadi, chiroylikka har kim boqadi", "Husn goh baxt keltirar, goh baxtsizlik", "Foydasiz chiroydan foydali cho'tir yaxshi" kabi maqollar orqali go'zallikning inson hayotidagi o'rni, uning imkoniyatlari va cheklavlari baholanadi. Bunday birliklar xalqning go'zallikka bo'lgan munosabati biryozlama emasligini, balki estetik, axloqiy va amaliy mezonlar uyg'unligida shakllanganligini ko'rsatadi.

Demak, go'zallik konseptining nominativ maydoni nafaqat tashqi husnni ifodalovchi birliklarni, balki insonning ma'naviy dunyosi, axloqiy fazilatlarini va estetik ideallarini aks ettiruvchi lisoniy vositalarni ham qamrab oladi. Shu jihatdan mazkur konsept o'zbek xalqining qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va milliy tafakkurining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu tadqiqotda yuqoridagi turg'un o'xshatishlar, iboralar va maqollardan iborat 51 ta birlik yig'ildi va barcha paremlar "turg'un o'xshatishlar/iboralar/maqollar, ularning kognitiv belgisi va paremiologik zonasi" ko'rinishida tahlil qilindi.

Turg'un o'xshatishlar: (misoli) Gulday (kabi, singari, yanglig') - go'zallik nafislik va noziklik bilan bog'lanadi (aksiologik); Oyday - mukammal go'zallik oy obrazi orqali tasavvur qilinadi (mifopoetik); G'unchaday (kabi, singari, yanglig') - yosh go'zallik noziklik va latofat bilan bog'lanadi (aksiologik); (Naqsh) olmaday (kabi, singari) - yuz go'zalligi sog'lomlik va tabiiy joziba orqali baholanadi (baholovchi); Popukday - bejirimlik go'zallikning muhim belgisi hisoblanadi (baholovchi); Bahorday (kabi, yanglig') - go'zallik yashnash va yangilanish bilan bog'lanadi (aksiologik); (Bamisoli) jannatday (kabi, singari, yanglig') - ideal go'zallik jannat timsoli orqali tasavvur qilinadi (diniy-mifopoetik); Malika(lar)day - ayol go'zalligining eng yuqori namunasi malika obrazi orqali ifodalovchi (ijtimoiy-aksiologik).

Novdaday - go'zal qomat noziklik va nafislik bilan bog'lanadi (baholovchi); Nihoday - yosh va nozik qomat go'zallik mezonini hisoblanadi (baholovchi); O'n to'rt kunlik oyday - mukammal go'zallik to'lin oy bilan qiyoslanadi (mifopoetik); Suqsurday - go'zallik kelishganlik va tabiiy joziba orqali idrok qilinadi (estetik); Farishtaday - haqiqiy go'zallik poklik va ma'naviy komillik bilan uyg'unlashadi (diniy-aksiologik); (Misoli) Eram bog'i (Bog'i Eram)dek - betimsol go'zallik afsonaviy bog' obrazi orqali tasvirlanadi (mifopoetik); Qaldirg'och qanotiday (-ga o'xshash) - nafis shakl va mutanosiblik go'zallik belgisi hisoblanadi (baholovchi); Qasrday (kabi, singari) - ulug'vorlik va muhtashamlik go'zallik yaratadi (aksiologik); Qoshiqday - ixchamlik va bejirimlik go'zallik mezonini hisoblanadi (baholovchi); Kelin(chak)day (kabi, singari) - go'zallik nazokat va bezanish orqali namoyon bo'ladi (ijtimoiy-estetik); Kunday - go'zallik yorug'lik va poklik bilan bog'lanadi (aksiologik); Munchoqday (kabi, singari) - kichik va jilo beruvchi unsurlar go'zallikni kuchaytiradi (baholovchi); (Bamisoli) olovday (kabi, singari, yanglig') - jozibadorlik ichki harorat va ehtiros bilan bog'lanadi (emotsional-estetik); Sambitday (kabi) - tik va kelishgan qomat go'zallik mezonini hisoblanadi (baholovchi); Sarvday (kabi, misoli) - ideal qomat sarv timsoli orqali tasavvur qilinadi (mifopoetik-estetik); Tol chiviqday - nozik va xipcha qomat go'zallik belgisi hisoblanadi (baholovchi); Tugma(cha)day - kichiklik va mutanosiblik go'zallik yaratadi (baholovchi); To'ti(qush)day - go'zallik chiroy va yoqimli muomala bilan uyg'unlashadi (ijtimoiy-estetik); Chaqmoqday - go'zallik shiddat va hayotiy energiya bilan uyg'unlashadi (emotsional-estetik); (Laxcha) cho'g'day (kabi, singari) - jozibadorlik kuchli hissiy ta'sir uyg'otadi (emotsional-estetik); Shamshoddek - tik va mutanosib qomat go'zallikning muhim mezonidir (estetik); (Misoli) Eram bog'i (Bog'i Eram)dek - ideal va betakror go'zallik afsonaviy Eram bog'i obrazi orqali tasavvur qilinadi (mifopoetik-aksiologik); (Xuddi) ertak(dagi)day (kabi) - ideal go'zallik tasavvur chegarasidan tashqarida bo'ladi (mifopoetik); O'tday (kabi, singari) - go'zallik darhol e'tibor va mehr uyg'otadi (emotsional); (Xuddi) quyib qo'yganday - mukammal mutanosiblik go'zallikning oliy ko'rinishi hisoblanadi (aksiologik); Qo'g'irchoqday - bejirimlik va mutanosiblik go'zallik timsoli sifatida idrok qilinadi (estetik).

Iboralar: istarasi issiq, sitorasi issiq, yulduzi issiq - go'zallik insonda iliq va yoqimli taassurot uyg'otishi bilan baholanadi (emotsional-estetik).

Maqollar: Kishilik jamiyatida shunday holatlar tez-tez uchrab turadiki, kishining, ayniqsa, ayollarning go'zal husni tufayli ishqiboz, shaydolari ko'p bo'ladi. Ular ko'p balolarga duchor qiladilar, hatto halok etadilar. Tarixda bunga misollar ko'p. Shuning uchun ham xalqimiz o'zining bir turkum maqollarida husnga nisbatan salbiy munosabat bildiradi [8, 518].

"Husn goh baxt keltirar, goh baxtsizlik" - go'zallik inson hayotiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (baholovchi); "Yaxshi otga o'g'irlik ko'p, yaxshi xotinga zo'rlik ko'p" - go'zallik va qadri narsalar ko'proq xavf-xatarga duch keladi (ijtimoiy-baholovchi); "Yon yerni shamol qoqadi, chiroylikka har kim boqadi" - go'zallik doimo e'tibor markazida bo'ladi (baholovchi); "Bulbul ovozidan qafasga giriftor" - go'zallik va iste'dod ba'zan musibat sababiga aylanishi mumkin (baholovchi); "Gap husnda emas, yusunda" - insonning qadri tashqi ko'ri-

nishidan ko'ra fe'l-atvorida namoyon bo'ladi (aksiologik); "Husn xulqi bilan chiroylik" - haqiqiy go'zallik xulq bilan mukammallashadi (etik-aksiologik).

"Yaxshi xulq - kishining ko'rki"- insonning eng katta go'zalligi uning odobidir (etik-aksiologik); "Xushxulqlik - jamol, kamtarlik - kamol" - ichki fazilatlar tashqi go'zallikdan ustun turadi (etik-aksiologik); "Xushxulqlik fazilati - odamiylik ziynati" - insonni bezaydigan asosiy go'zallik yaxshi xulqdir (etik-aksiologik); "Foydasiz chiroydan foydali cho'tir yaxshi" - manfaat va fazilat tashqi husndan ustun turadi (aksiologik); "Umr o'zadi, husn to'zadi" - tashqi go'zallik o'tkinchi qadriyat hisoblanadi (falsafiy-aksiologik); "Turq boshqa-yu ko'rk boshqa" - tashqi qiyofa va haqiqiy go'zallik bir xil emas (aksiologik); "Chiroylilik murod emas, xunuklik uyat emas" - insonning qadri tashqi ko'rinishi bilan belgilanmaydi (etik-aksiologik); "Husning bo'lguncha, baxting bo'lsin" - baxt go'zallikdan muhimroq qadriyat hisoblanadi (aksiologik); "Go'zallik yuzda emas, aqlda" - aql insonning eng yuksak go'zalligi hisoblanadi (intellektual-aksiologik); "Chiroying borida chinoringni top" - go'zallik hayot imkoniyatlarini yarata-digan ne'mat hisoblanadi (pragmatik); "Chiroyli qizning nozi bor" - go'zallik ijtimoiy mavqe va o'ziga xos imtiyoz beradi (ijtimoiy).

Go'zallik konseptining paremiologik materiallar asosida shakllangan nominativ maydoni yadro, yaqin periferiya va uzoq periferiya qatlamlaridan iborat bo'lib, ular xalqning go'zallik haqidagi aksiologik tasavvur-larini aks ettiradi. Konsept yadrosini mukammallik (19%), ma'naviy komillik (18%) va nafislik, latofat (16%) semalari tashkil etib, ular umumiy nominativ maydonning 53 foizini qamrab oladi. Yaqin periferiyada joziba-dorlik, nazokat, yoshlik va estetik ta'sir haqidagi tasavvurlar (28%) joylashadi. Uzoq periferiyani esa go'zalli-kning o'tkinchiligi, uning baxt va baxtsizlik bilan bog'liqligi hamda tashqi husndan ko'ra aql, odob va foydaning ustunligini ifodalovchi paremiologik birliklar (19%) tashkil etadi. Natijada o'zbek xalqining konseptual olamida go'zallik konsepti, avvalo, tashqi chiroy emas, balki ma'naviy komillik, xushxulqlik va mukammallik bilan bog'liq axloqiy-estetik qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek xalqining konseptual olamida go'zallik, avvalo, ma'naviy kamolot va insoniy fazilatlar bilan bog'liq qadriyat sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan go'zallik konsepti xalqning dunyo-qarashi, qadriyatlar tizimi va estetik ideallarini aks ettiruvchi muhim lingvokognitiv birliklardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida o'zbek tilidagi boshqa aksiologik konseptlarning paremiologik va kognitiv xususiyatlarini o'rganishda nazariy hamda amaliy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бойматова Н.К. Семантическое поле концепта "Красота" в таджикской и английской лингвокультурах. Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2019. – 174 с.
2. Аверина М. А. Вербализация концепта "красота" в лексеме "прекрасный" как составляющая языковой картины мира / М. А. Аверина // Universum: филология и искусствоведение. – 2014. – № 10(12). – С. 12–14.
3. Анашкина, А. В. Концепт красота и его воплощение в дискурсе рок – поэзии (на материале текстов группы "Аквариум") / А. В. Анашкина // Вестник Томского государственного педагогического университета. – 2014. – № 2 (143). – С. 59–61.
4. Аниськина, Н. В. Лексическая экспликация концепта красота в современной рекламе / Н. В. Аниськина // Верхневолжский филологический вестник. – 2016. – № 2. – С. 87–92.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B. 319.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati. – Toshkent: Fan, 1964. – B. 211.
8. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: o'zbek maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston sovet ensiklopediyasi bosh tahririyati, 1990. – 528 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.